

VEB SAYTLARNING TIBBIY MUASSASALAR ISHINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI ROLI

Ne'matov Nizom Ismatullayevich

Samarqand davlat tibbiyot universiteti assistenti.

Sobirova Komila Davron qizi

Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10835690>

Annotatsiya. Zamonaviy tibbiyot muhitida veb saytlarning ahamiyati tobora oshib bormoqda. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari so'nggi yillarda tibbiyot muassasalarining ish jarayonlarini tubdan o'zgartirib yubordi. Tibbiyot muassasalarida ushbu texnologiyalarni qo'llash, murajatchilarga yuqori sifatli xizmat ko'rsatish va muassasaning samaradorligini oshirish imkonini beradi. Ushbu maqolada, tibbiyot muassasalari ish faoliyatida veb saytlardan foydalanish afzalliklari va ularning amaliyotga tatbiq etilishi haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: veb sayt, internet, texnologiya, tibbiy muassasa.

THE ROLE OF WEBSITES IN IMPROVING THE WORK OF MEDICAL INSTITUTIONS

Abstract. The importance of websites in today's medical environment is increasing. Information and communication technologies have fundamentally changed the work processes of medical institutions in recent years. The use of these technologies in medical institutions allows to provide high-quality services to patients and increase the efficiency of the institution. This article provides detailed information about the advantages of using websites in the work of medical institutions and their practical application.

Keywords: website, internet, technology, medical institution.

РОЛЬ САЙТОВ В УЛУЧШЕНИИ РАБОТЫ МЕДИЦИНСКИХ УЧРЕЖДЕНИЙ

Аннотация. В современной медицинской среде значение веб-сайтов все больше возрастает. Информационные и коммуникационные технологии за последние годы коренным образом изменили процессы работы медицинских учреждений. Использование этих технологий в медицинских учреждениях позволяет оказывать пациентам качественные услуги и повышать эффективность работы учреждения. В данной статье представлена подробная информация о преимуществах использования веб-сайтов в работе медицинских учреждений и их практическом применении.

Ключевые слова: сайт, интернет, технологии, медицинское учреждение.

Kirish: Axborot texnologiyalarining rivojlanishi tufayli sog'liqni saqlashga oid ma'lumotlarga keng qamrovli kirish mumkin. Hozirgi kunda ko'p odamlar o'zlari va yaqinlari uchun sog'liq bilan bog'liq ma'lumotlarni olishga harakat qilmoqdalar. Tibbiy konsultatsiyalar internet, broshyuralar, kitoblar, jurnallar, televideniya, radio va boshqa axborot resurslari bilan cheklanadi. Ular orasida internet, tibbiy veb-saytlar asosiy o'rin tutadi.

Tibbiyot veb saytlar sifatiga turli omillar ta'sir qiladi va veb sayt dizayini ana shu asosiy omillardan biridir. Veb sayt tuzilishi asosan veb saytlarning turli qismlari o'rtasida munosabatni ifodalaydi va veb saytlar turli qismlarining funksiyalarini ham tasniflaydi. U navigatsiya dizayni, vizual dizayn, axborot arxitekturasi, sahifa tartibi, estetik va vizual estetik muvozanatni o'z ichiga

oladi. Veb saytlarning umumiy grafik ko'rinishi, sahifa elementlarini joylashtirish, kontent taqdimoti, tasvirlar va ommaviy axborot vositalaridan foydalanish veb saytning ko'rinishi va jalb qilishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Veb saytlar qurishda HTML gipermatnli belgilash tilidan foydalaniladi.

HTML gipermatnli belgilash tili ingliz olimi Tim Berners-Li tomonidan 1986–1991 yillarda Shveysariyaning Jenevadagi CERN laboratoriyasida ishlab chiqilgan. HTML hujjat, odatda, ikkita bo'limdan iborat bo'ladi. Birinchi bo'lim HEAD (bosh qism yoki sarlavha) bo'limi bo'lib u tegi bilan boshlanib HEAD tegi bilan tugaydi. Ikkinchi bo'lim BODY (tana) bo'limi bo'lib, unda hujjatni mazmuni aks ettiradi va u BODY tegi bilan boshlanib BODY tegi bilan tugaydi. Agar HTML hujjat freym-strukturani ifodalashi (veb-brauzer oynasidagi ma'lumotlar alohida sohalarda aks ettishi) lozim bo'lsa, u holda BODY bo'limi o'rniga FRAMESET (FRAME SET – strukturalar (ramkalar) tizilmasi (to'plami), juft tegi yordamida) bo'limi ishlatiladi. Shuni ta'kidlash joizki, HTML-hujjatda va juft teglarini yozish tavsiya etiladi, lekin majburiy emas. Veb-sahifaga kiritilishi lozim bo'lgan yana bir element – veb-sahifa nomi bo'lib, nom kiritish uchun <TITLE> tegi qo'llaniladi. Veb-sahifada bu teg bir marta ishlatiladi. Veb-sahifa nomi veb-brauzerning sarlavha satrida aks etib, veb-sahifaning o'zida ko'rinmaydi. Shu sababli uni veb-sahifaning istalgan joyiga yozish mumkin. Ammo veb-sahifa nomini veb-sahifa boshiga yozish maqsadga muvofiq. Veb-sahifa nomi tegi bilan yakunlanadi. Veb-sahifaga istalgan nom, masalan, o'z ismingizni berishingiz mumkin. HTML tili muttasil rivojlanib bormoqda. O'z navbatida veb-brauzerlar ham yangilanib turibdi. Hozirgi kunda veb-sahifa tayyorlash uchun asosan HTML5 tilidan foydalaniladi.

Dasturlash tillaridan esa PHP dasturlash tilidan ko'proq foydalaniladi. PHP - bu eng keng tarqalgan, zamonaviy veb dasturlash tili hisoblanadi. Internetdagi saytlar va veb-xizmatlarning aksariyati PHP-dan foydalangan holda yaratilgan. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, PHP saytlarning 80% dan ko'prog'ida, jumladan facebook.com, vk.com, baidu.com va boshqa xizmatlarda keng qo'llaniladi. Tilning soddaligi bizga turli xil murakkablikdagi saytlar va turli xil portallarni tez va osonlik bilan yaratishimizga imkon bera oladi. PHP- 1994- yilda daniyalik dasturchi Rasmus Lerdorf tomonidan yaratilgan bo'lib, dastlab boshqa Perl tilidagi skriptlar to'plami edi. Keyinchalik ushbu skriptlar S tilidagi tarjimonga qayta yoziladi. Yaratilganidan beri PHP (PHP uchun qisqacha: Hypertext Preprocessor) veb saytlar va veb-ilovalarni soddalashtirish uchun qulay vositalar to'plamini taqdim etdi.

Veb-saytlar tibbiyot muassasalarining ishini takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi. Ular bemorlarga zarur ma'lumotlarni tez va oson taqdim etish, shuningdek, tibbiy xizmatlarni yanada samarali va qulay qilish imkonini beradi. Masalan, tibbiy veb-saytlar orqali bemorlar o'zlarining tibbiy holati va davolanish rejaları haqida ma'lumot olishlari, shifokorlar bilan maslahatlashishlari va hatto onlayn tarzda dori-darmonlar buyurtma qilishlari mumkin.

Bundan tashqari, tibbiy veb-saytlar sog'liqni saqlash sohasidagi axborot almashinuvini yaxshilashga yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida, tibbiy xodimlar va bemorlar o'rtasidagi muloqot sifatini oshiradi va tibbiy xizmatlarning umumiy sifatini yuksaltiradi. Shu bilan birga, tibbiy veb-saytlar foydalanuvchilarning ishonchini qozonishda muhim rol o'ynaydi, chunki ularning dizayni va tuzilishi foydalanuvchilarga qulay va tushunarli bo'lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, tibbiyot muassasalari uchun veb-saytlar yaratish va ularni takomillashtirish, bemorlarga yuqori sifatli tibbiy ma'lumot va xizmatlarni taqdim etishda muhim ahamiyatga ega. Bu esa, o'z navbatida, sog'liqni saqlash tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Abdusamatovich K. S., Olimjonovna T. F. Application of web applications in medicine //Eurasian Research Bulletin. – 2022. – T. 14. – C. 46-50.
2. Nabiyeva, S. S., Rustamov, A. A., Malikov, M. R., & Ne'matov, N. I. (2020). Concept of medical information. *European Journal of Molecular and Clinical Medicine*, 7(7), 602-609.
3. Malikov, M. R., Rustamov, A. A., & Ne'matov, N. I. (2020). STRATEGIES FOR DEVELOPMENT OF MEDICAL INFORMATION SYSTEMS. *Theoretical & Applied Science*, (9), 388-392.
4. Berdiyevna, A. S., & Olimjonovna, T. F. (2022). INNOVATIVE APPROACHES IN THE EDUCATION SYSTEM TO INCREASE YOUTH PARTICIPATION. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(3), 674-677.
5. Esirgapovich, K. A. (2022). THE EASIEST RECOMMENDATIONS FOR CREATING A WEBSITE. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(2), 758-761.
6. Toxirova, F. O., Malikov, M. R., Abdullayeva, S. B., Ne'matov, N. I., & Rustamov, A. A. (2021). Reflective Approach In Organization Of Pedagogical Processes. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(03), 2020.
7. Ne'matov, N., & Rustamov, T. (2022). SANATORIYLAR ISHINI AVTOMATLASHTIRISH: BRON XIZMATI VA UNING STRUKTURASI. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(11), 763-766.
8. Ne'matov, N., & Ne'matova, N. (2022). OLIY TA'LIM TIZIMI TALABALARIGA O'ZBEK TILINI O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI. *Академические исследования в современной науке*, 1(19), 37-38.
9. OB Akhmedov, AS Djalilov, NI Nematov, AA Rustamov // Directions Of Standardization In Medical Informatics // Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 2(2), 1-4 p. 2021
10. Ne'matov, N., & Isroilov, J. (2022). TIBBIY VEB SAYTLAR YARATISH YUTUQ VA KAMCHILIKLARI. *Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot*, 1(25), 162-164.
11. Ne'matov, NI. (2022). TIBBIY VEB SAYTLAR YARATISH SAMARADORLIGI. *Academic Research in Educational Sciences (ARES)* 3 (2), 118-124
12. Ismatullayevich, N. N. (2023). The role of educational websites in the development of student's higher education systems. *Eurasian Journal of Research, Development and Innovation*, 17, 17-20.
13. Ismatullayevich N. N., Ilxomovna M. Z. Automation of Sanatorium Work: Reservation Service and its Structure //Miasto Przyszłości. – 2022. – T. 29. – C. 65-67.